



KINOLOGIYA XIZMATI ASOSLARI



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA‘LIM MARKAZI

E.B. BERKINOV, T.A.BABAYEV,
D.F.KABULOV, G.U.AXMEDOVA

KINOLOGIYA XIZMATI ASOSLARI

KASB-HUNAR
KOLLEJLARI UCHUN O‘QUV QO‘LLANMA

NOSHIR
TOSHKENT
2012

UDK: 636.7(075)
KBK636.73ya722
K-43

Mas'ul muharrir:

A.A. Satibaldiyev – Qibray tumani Chingeldi maishiy xizmat kasb-hunar kolleji direktori.

Taqrizchilar:

A.K. Mirahmedov – *biologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Bioximiya institutining yetakchi ilmiy xodimi.*

T.M. Muhamedov – *tibbiyot fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi Endokrinologiya ilmiy-tekshirish markazining bo'lim mudiri.*

O.Eshonkulov – *biologiya fanlari doktori, professor, pediatriya instituti qoshidagi akademik litsey direktori.*

N.Q. Pardayev – *falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Qibray tumani Baytqo'rg'on xizmat ko'rsatish va iqtisodiyot kasb-hunar kolleji direktori.*

D.Sh. Seraliyeva – *Toshkent viloyati Qibray tumani mudofaa ishlari bo'limining bo'lim boshlig'i, podpolkovnik.*

Berkinov E.

K-43 **Kinologiya xizmati asoslari:** akademik litsey va kasb-hunar kollejlari talabalari uchun o'quv qo'llanma / E. Berkinov [va boshq.]; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi; O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi. – Toshkent: Noshir, – 2012. – 224 b.

I. BABAYEV T.A., II. KABULOV D.F., III. AXMEDOVA G.U.

ISBN 978-9943-4085-5-5

Ushbu o'quv qo'llanma kollejlarning «kinologiya inspektori» guruhlariga uchun o'quv dasturi asosida tayyorlangan. Qo'llanmada xizmat itlarining asosiy turlari, ko'rinishi, ularning organizmining tuzilishi, funksiyalari, genetik va seleksiyasi, boqish va ko'paytirish masalalari to'g'risida batafsil ma'lumotlar berilgan.

Uquv qo'llanma akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, umumta'lim maktablari va boshqa tashkilotlardagi kinologiya sohasida faoliyat ko'rsatadigan yosh mutaxassislariga xizmat itlari bilan ishlashda, mavzulariga doir ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar, darslar o'tkazishda foydalanish uchun tavsiya etiladi.

Qo'llanmadan kinologiya sohasida faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislar, ta'lim olayotgan o'quvchilar va keng kitobxonlar ommasi ham foydalanishlari mumkin.

UDK: 636.7(075)

KBK636.73ya722

ISBN 978-9943-4085-5-5

© «Noshir» nashriyoti, 2012.

KIRISH

Itlar – odamzotning o‘ziga o‘rgatgan birinchi hayvonlarlaridan hisoblanadi. Itlarni qo‘lga va uy sharoitiga o‘rgatish eramizdan 2000 yil muqaddam amalga oshirilgan.

Qadim zamondan hozirgacha itlar odamzotga xizmat qilib kelmoqda. Davrlarning o‘zgarganligi, almashganiga qaramasdan insonga uning hayoti davomida ishonarli do‘st bo‘lib kelmoqda.

It odamni yirtqich hayvonlardan saqlaydi, unga yemish va kiyadigan kiyimlarini tashish hamda sovuq joylarda transport vositasi sifatida xizmat ko‘rsatadi. Oxirgi vaqtlarda itlar mollarni boqishda, imoratni, uylarni qo‘riqlashda, kishilarni qidirib topish va qutqarishda, harbiy sohada va boshqalarda foydalana boshlandi.

Xizmat itlarini soha bo‘yicha tayyorlash XX va XXI asrlarda tez rivojlana boshladi. Harbiy o‘quv muassasalarida, maktab-pitomnikalarda itlarni harbiy va sport musobaqasiga tayyorlash boshlab yuborildi. Chegara qo‘shinlari ichki ishlar vazirligi tizimlarida tashkil etilgan maktab-pitomnikalarning hissasi xizmat itlarini tayyorlashda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Ikkinchi jahon urushida to‘rt oyogli jangchilar 300 ga yaqin dushman tanklarini portlatdilar. 120 mingdan ko‘proq muhim xabarlar o‘q otishmasidan qat’iy nazar manziliga yetkazdilar, 8 ming kilometr ga yaqin aloqa simlarini tortib berdilar. Xizmat itlari yordamida 4 milliondan ortiq mina, fugaslar va boshqa portlovchi moslamalar topilib, zararsizlantirilgan, jang maydonidan bir necha 10 minglab yarador jangchilar olib chiqilgan. Hozirgi kunda xizmat itlarining yordamidan ko‘plab sohalarda foydalanilmoqda. Davlat chegaralarini qo‘riqlashda, maxsus harbiy obyektlarini, qimmatbaho xalq boyligini, jinoyatchilarni ushlab, qidiruv-qutqaruv ishlarida, bojxona postlarida, qimmatbaho minerallar va rudalarni, gaz quvurlarining zararlanganligini aniqlashda xizmat itlari bebaho

yordam ko'rsatmoqda. Itlar cho'pon, ko'zi ojizlarni yetaklab yurish va ko'plab sohalarda odamzotga ko'maklashmoqda.

Itlar bilan aloqada bo'lish odamlarning fe'l-atvoriga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, asosan shahar joylarda yashaydigan, tabiatdan uzoqlashgan va xo'jalik ishlari bilan band bo'lmagan insonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, zo'riqishlarni pasaytiradi.

Itlarni boqish va ular bilan birgalikda yurish yoshlarga xursandchilik, ko'tarinki ruh bag'ishlaydi. Bolalarda mehnat qilish, mehribonlik, rahmdillik, chidamlilik va tirishqoqlik xususiyatlarini rivojlantiradi.

Xizmat itlarini boqish va tarbiyalash odamlarni jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishiga yordam beradi. Ko'plab yoshlarimiz o'zlarining tayyorlagan xizmat itlari bilan harbiy xizmatga chegara qo'shinlariga, qorovul qo'shinlariga va boshqa harbiy xizmat turlariga bormoqda.

O'rgatilgan xizmat itlari yordamida ichki ishlar vazirligi xodimlari, bojxona xodimlari ko'plab giyohvand-narkotik moddalarni topib, ushlab bermoqda. Mamlakatimizda o'tkaziladigan «Qora dori» tadbirlarida kinologlar xizmat itlari bilan faol ishtirok etmoqdalar. Tadbir davomida xizmat itlari yordamida jinoiy holatlar aniqlandi va qonunbuzarlardan bir necha kg turli xil giyohvand preparatlar olinib, ular yordamida minglab tarkibida giyohvand moddasi bo'lgan va noqonuniy ekilgan o'simliklar maydoni yo'q qilindi.

Kuchuklarni olib boqish va tarbiyalashda kishining o'z oldiga qo'ygan maqsadi bo'lishi lozim, shunga qarab uni boqib, chiniqtirib o'rgatib, sabr-toqat bilan ishlagandagina ko'zlagan maqsadga erishish mumkin.

I. ITLAR HAQIDA MA'LUMOT

1.1. ITLARNING ASOSIY TURLARI

Itlarni uy sharoitida o'rgatish va tarbiyalash bundan bir necha asrlar ilgari dunyoning har xil joylarida amalga oshirilgan. Ko'p davrlarning o'tganiga qaramasdan itlar hamma vaqt odamlarga ishonchli do'st bo'lib qolgan. Ular har qanday sharoitda odamlarning yonida bo'lgan. Ba'zi itlar yaxshi tarbiyalaydigan, qarab parvarish qiladigan odamning qo'lida bo'lsa ham u o'zining birinchi egasini unutmaydi, unga sotqinlik qilmaydi va kechiradi. Agarda uni ko'rib qoladigan bo'lsa, hididan sezib, birinchi asragan egasi bilan tezroq uchrashishga intiladi, yugurib borib ovoz chiqarib, unga xursand bo'lib tashlanadi. It odamga haqiqiy ishonarli do'st ekanligini sezdiradi. Itning eshitish qobiliyati shunday rivojlanganki, u o'zini egasini yurishidan, hididan aniqlab, u bilan tezda uchrashishni kutadi, sababi it yarim millionga yaqin hidlarni ajrata oladi.

Sitseron bundan ikki ming yil ilgari shunday degan edi, «Itning egasiga o'rganib qolishi uning haqiqiy do'stligi, topshirgan narsani qo'riqlashi, begona odamlarga ishonmasdan qarashligi, yetuk iz olish qobiliyati va ovda sezgirligi itlarning odamzod uchun yaratilgan ajoyib tuhfasidir», – degan edi.

Odamzodning oldiga qo'yilgan talablar o'zgarmoqda, shu sababli itlarni ishlatish sohalari ko'paymoqda. Ularning bajaradigan ishlariga muvofiq asosiy turlarini, tabiiy xususiyatlarini rivojlantirmoqda, o'zining paydo bo'lishiga, yashagan sharoitiga qarab uy itlarining tarixi, xillari vujudga kelgan. Itlarning yangi turlarini, zotlarini yetishtirish hozirgi kunlarda ham davom etmoqda.

Zot – bu itlarning katta guruhi, bir xil nasldan paydo bo'lgan, bir-biriga tashqi ko'rinishi jihatidan o'xshash, tuzilishi, xulq-atvori, ba'zi tabiiy xususiyatlari va xizmatga yaroqli sifatlarini nasldan-naslga

oʻtkazuvchanligi bilan ajralib turadi. Har bir zot odamlarning mehnati tufayli vujudga keladi. Zot odamning talablarini hamma tomonlama qondirishga qarab davom ettiriladi. Zotning turiga ularni ushlab sharoiti, oziqlantirish, boqish koʻpaytirish va yetishtirish, mashq qildirish usullari oʻz taʼsirini koʻrsatadi. Notoʻgʻri sharoitlarda ushlab va oʻstirish, naslchilikda yoʻl qoʻyilgan xatoliklar turning salbiy oʻzgarishiga sabab boʻladi. Zotli itlarning koʻpaytirishda va ularning xizmat etish sifatini rivojlantirishda doimo naslchilikni toʻgʻri yoʻlga moslashganini eʼtiborga olish lozim. Hozirgi vaqtda itlarning 400 dan ortiq turi bor. Itlarning zotlari asosan 3 ta guruhga boʻlinadi. Xizmat itlari, ovchi itlar va har xil uy sharoitida oʻstiriladigan itlar.

Xizmat itlari – bu dressirovka (mashq) qildirilgan, har tomonlama tayyorlangan, har xil xizmatga layoqatli itlar jumlasiga kiradi. Xizmatga kerakli itlarni ularning har xil zotidan, turidan tayyorlash mumkin. Mudofaa vazirligiga, chegara qoʻshinlariga, ichki ishlar vazirligi qoʻshinlari hamda muassasalariga va boshqa sohalarda, asosan quyidagi itlarning turidan foydalaniladi: nemis, kavkaz, oʻrta osiyo, janubiy rus, shotland ovcharkalari, qora terer, moskva qorovul iti, rizenshnautser, rotveler, erdelterer, doberman, bokser, dog va boshqalar.

NEMIS OVCHARKASINING TUZILISHI

Nemis ovcharkasi yagʻrinining balandligi erkak itlarniki 60–65 sm boʻlib, urgʻochisida esa 55–60 sm boʻladi. Orqa qismining balandligi yagʻrin balandligidan qisman past boʻladi. Itning uzunligi gavdasining balandligidan oshiqroq boʻlishi kerak. Bel qismi – mustahkam rivojlangan muskullari tortilgan osilmagan va bukrisimon emas, umurtqa pogʻonasi keng va yaxshi rivojlangan boʻladi, chunki koʻkrak qafasining kengligi, oʻrta kenglikda va chuqur, koʻkrakning chuqurligi 45–48 gradusni tashkil etadi. Boʻyni-gavda boshlanish qismida taxminan 45 gradus koʻrinishda boʻladi. Burun yoʻlining uchi qora boʻladi. Quloq orasidagi masofa turishi bir xil, balandlikda

va tekis bo'lishi shart. Ko'z o'rtacha, ovalsimon, ko'zlari to'q qora bo'ladi. Qorin qismi mustahkam, tortilgan va osilmagan bo'ladi. Oyoq qismi to'g'ri, kaftlari kalta, barmoqlari yig'ilgan, yostiqchalari qalin va qattiq, baquvvat, tirnoqlari qora rangda bo'ladi. Dumi o'rtacha kaltalikda, past qo'yilgan yengil qilichsimon qayrilgan bo'ladi. Boshi: boshning tashqi tuzilishi qoziqsimon qayrilgan, mustahkam, lekin qo'pol emas. Tumshug'i: tumshuqning uzunligi o'rtacha, to'g'ri, uchli, cho'zinchoq bo'ladi. Chakagi kuchli, tishlari qaychisimon, chakagining tishlari baquvvat, sog'lom va to'liq bo'lishi kerak. Og'irligi erkak itlarda 30–40 kg, urg'ochilarda 22–32 kg bo'ladi. Tishlari oq rangda, jag'ning tepa qismida 20 dona, pastki qismida 22 dona tish bo'ladi. Rangi qora qizg'ish aralash, ko'krak qismi oqish, asosan qoramtir sarg'ish rangda bo'ladi.

Fe'l-atvori: «Nemis ovcharkasi» mustahkam asab sistemasiga ega, unda o'ziga ishonuvchan, tashqi muhitga diqqat, bosiq (jahli chiqqan paytdan tashqari), yengil boshqaruvchan, begona shaxslardan qo'rqmaslik, o'zini himoya qilish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Tanasi mustahkam, yaxshi rivojlangan bo'ladi, muskullar bilan uzunligi yag'rining balandligidan 112–115% ni tashkil etadi.

QIDIRUVCHI OVCHI ITLAR

Qidiruvchi ovchi itlar zotlar ichida alohida guruhni tashkil etadi. Ular pashsha bo'lmagan o'rmon, butazorlar, o't-o'lanlar bilan qoplangan o'rmonzorlar, qamishzorlar va boshqa shunga o'xshash joylardan parrandalarni quvib chiqarish uchun mo'ljallangan, bunday vazifalarni bajarish uchun esa itlar kichkina jussali, kuchli va serharakat, suvdan qo'rqmaydigan, turli ob-havo sharoitlarida ham suvga tushadigan va albatta egalariга bo'ysunuvchan bo'ladi. Biroq bizning davrimizda ushbu guruhga mansub itlar tashqi qiyofasining chiroyliligi tufayli manzarali itlar sifatida foydalanilmoqda. Itlarning bu guruhiga Angliya, Amerika spaniyellari, nemis bedana oviga mo'ljallangan iskovchi iti kiradi.

MOSKVA QO‘RIQCHI ITI

Moskva ostonasidagi «Qizil yulduz» pitomnigida senbernarlar va kavkaz ovcharkalarini chatishtirish yo‘li bilan yaratilgan zotli guruhning nomi Moskva qo‘riqlash iti deb ataladi. Bu it tashqi ko‘rinishi bilan ko‘proq senbernarga o‘xshab ketadi, lekin senbernardan farqli o‘laroq, biroz baquvvat, quruq, harakatchan va saqlanish sharoitiga nisbatan ko‘nikuvchanligi bilan ajralib turadi. Har tomonlama vazmin, himoyalanih reaksiyasi yaxshi rivojlangan, bu it qorovul-qo‘riqlash xizmatlarida foydalaniladi. Uzoq muddatli sayr qildirishga muhtoj. Tanasining balandligi (yag‘rinidan) erkaklarida 66 sm dan, past bo‘lmaydi. Boshi keng, baquvvat, yonoqlari yaqqol ko‘rinib turadi. Qavariq peshonasidan keng tumshug‘iga o‘tish joyi aniq bilinadi. Quloqlari unchalik katta emas, osilib turadi. Ko‘zlari o‘rtacha kattalikda, tim qora. Tishlari yirik, oq, tishlashi qaychisimon. Bo‘yni katta, yag‘rini yaxshi ko‘rinib turadi. Orqasi baquvvat, ko‘kragi chuqur. Oldingi oyoqlari kuchli, tirsagi qalin, biroz bukilgan. Orqa oyoqlarining boldir suyaklari biroz kalta bo‘ladi. Dumining uzunligi sakrashga mo‘ljallangan, bo‘g‘inlariga yetadi. Jahli chiqqanda orqa chizig‘idan balandga ko‘tariladi. Yungi uzun, quyuq, yumshoq, yung osti junlari yaxshi rivojlangan. Yelka qismidagi yunglar baland o‘sganligi uchun yoqani eslatadi. Oyog‘ida yung orqa tomonidan hosil bo‘ladi. Dumidagi yunglar uzun. Tusi sariq yoki qo‘ng‘ir dog‘li oq sariq (ola), tumshug‘ida qora niqob bilan och sariq yung mavjud.

ANGLIYA KOKER SPANIYELI

Ovchi it zotlari ichida eng qadimgilaridan biri hisoblanadi. Juda chiroyli, serg‘ayrat, jo‘shqin, baquvvat va kelishgan gavdali, chidamli it. Uning eshitish va hid bilish qobiliyatlari juda yaxshi rivojlangan. Chaqqon va erkin harakatlanadi. Ixcham, aqlli va charchoq sezmaydigan ovchi it. Xona sharoitida saqlashga qo‘l keladi. Bolalarini sevadi, ular bilan o‘ynashni xush ko‘radi, haddan tashqari bo‘ysunuvchan, biroq bu it juda serharakati, shuning uchun doimiy

ravishda uzoq muddatli sayr qildirish zarur. Erkagining balandligi 39–41 sm, urg‘ochisidiki 38–39 sm, o‘rtacha og‘irligi 12–14 kg. Boshi yaxshi rivojlangan, peshonasi unchali keng emas, biroz bo‘rtib chiqqan. Boshidan tumshug‘iga o‘tish joyi yaqqol sezilib turadi. Tumshug‘i to‘g‘ri burchak shaklida. Burnining yumshoq joyi keng. Ko‘zlari ovalsimon, o‘rtacha kattalikda, jigarrang yoki o‘tkir jigarrang tusli, juda ta’sirchan bo‘ladi. Quloqlari osilib turuvchan, parrak shaklida, boshining pastida joylashgan, uzun, ipakdek, biroz to‘lqinsimon yunglar bilan qoplangan. Tishlari yirik emas, oq, tishglari qaychisimon. Bo‘yni uzun, kuchli, balandga ko‘tarilgan. Tanasi, ko‘kragi, qo‘li, chuqur va yaxshi rivojlangan. Yag‘rini yaqqol ko‘zga tashlanadi. Orqasi, qo‘li qisqa va to‘g‘ri. Beli qisqa, biroz bo‘rtib chiqqan, Sag‘ri keng, mushakli, chiroyli, qayrilgan. Dumi o‘rtacha uzunlikda, kesilgan, juda harakatchan. Oldingi oyoqlari to‘g‘ri kalta, orqa oyoqlari keng qo‘yilgan, bo‘g‘in burchaklari yaqqol ko‘rinib turadi, mushakli. Panjalari yig‘iluvchan, yumaloq shaklda. Yungi ipakdek yumshoq, to‘lqinsimon, qulog‘i, bo‘yni, ko‘kragi va oyoqlarining orqa tomonlarida, ayniqsa uzun o‘sgan. Rangi turlicha bo‘lishi mumkin. Bir tusli itlarda – ko‘kragida oq dog‘lar, turli tusli bo‘lganda tanasidagi ranglar bir xil tarqalgan bo‘lishi kerak.

MASTIF

Itlarning qiroli, Angliya mastifi, eng qadimgi kalta yungli zotlardan bo‘lib hisoblanadi. Yuliy Sezar (eramizdan avvalgi 55-yilda) Rim legionerlariga qarshi kurashgan anglosakslarda mavjud bo‘lgan, hajmi jihatdan yirik bo‘lgan itlarning egalari bilan birga dushmanlarga qarshi kurashganliklari to‘g‘risida yozma ma’lumotlar qoldirilgan. Rimga olib keltirilgan bu itlar yo‘lbars va sherlar, ho‘kizlar va ayiqlar bilan olishib ularni yenga olgan. Mastif juda yirik, baquvvat, semiz, lekin serharakat. Katta vaznga ega bo‘lishiga qaramasdan bo‘ysunuvchan, jasur va ziyrak it. Tinch, bosiq, bardoshlidir. Mastif vaziyatni ko‘ra bilish bilan birga uni idora qila oladi: xushyor, tushunuvchan, mustaqil va beozor. O‘zini yaxshi ko‘radi, vafodor do‘st, ajoyib hamroh. Unga



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi
<https://kitobxon.com/uz/asar/184> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси
<https://kitobxon.com/uz/asar/184> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию можно
найти на сайте <https://kitobxon.com/ru/asar/184>